

PPAGMATIK MODALLIK KATEGORIYA SIFATIDA

Xamidova Sayyora Nurmatovna

Farg‘ona politexnika instituti O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrası
katta o‘qituvchisi

PRAGMATIC MODALITY AS A CATEGORY

Sayyora Nurmatovna Khamidova

Fergana Polytechnic Institute, Department of Uzbek language and language
teaching senior teacher

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ МОДАЛЬНОСТЬ КАК КАТЕГОРИЯ

амидова Сайёра Нурматовна

Ферганский политехнический институт, кафедра Узбекский язык и
обучение языков
старший преподаватель

Annotatsiya

Maqolada matnning kommunikativ vazifalari, nutqiy vaziyatlarda so‘zlovchi va tinglovchiining shaxsi, dunyoqarashi, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi hisobga olinishi zarurligi, shu asnoda kommunikativ munosabatga kirishishda obyekt va subyektiv omillar ta‘minlanishida modallikni pragmatik kategoriya sifatida shakllantirishda namoyon bo‘lishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: pragmatik kategoriya, generativ nazariya, obyekt va subyektiv omillar subyektiv – reflektiv jarayon, lingvistikaning, sintaksis, kognitsiya.

Abstract

In the article, the communicative tasks of the text, the need to take into account the personality, worldview, age, gender, and social background of the speaker and the listener in speech situations, and in this way, in the formation of modality as a pragmatic category, in the provision of object and subjective factors in the communicative relationship were depicted.

Key words: pragmatic category, generative, object and subjective theoretical subjective - reflective process, linguistics, syntax, cognition.



Аннотация.

В статье рассматриваются коммуникативные задачи текста, необходимость учета личности, мировоззрения, возраста, пола и социального происхождения говорящего и слушающего в речевых ситуациях и, таким образом, при формировании модальности как прагматическая категория, определяющая предметные и субъективные факторы в коммуникативных отношениях.

Ключевые слова: прагматическая категория, порождающая, предметная и субъективная, теоретический, субъективно-рефлексивный процесс, лингвистика, синтаксис, познание.

Kirish

XXI asr tilshunosligining o‘ziga xosligi pragmatika bilan bog‘liq tadqiqotlar sonining ortib borishi bilan belgilanadi. Tadqiqot obyekti sifatidagi barcha masalalar pragmatik talqin qilinmoqda. Xususan, modallik hodisasi ham tilshunoslikda pragmatik kategoriya sifatida maydonga chiqadi. Bu esa modallikning yana bir jihatini aks ettiradi. Zamonaviy generativ nazariya asosida matn tarkibidagi jumlar uni tashkil qiluvchi munosabatlar kesimida tadqiq etiladi hamda matnning kommunikativ vazifalari, nutqiy vaziyat kabilar uning pragmatikasini hosil qiladi. Bu jarayonda so‘zlovchi va tinglovchi bir– birining shaxsi, dunyoqarashi, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi hisobga olinishi kerak. Shu asnda kommunikativ munosabatga kirishishda obyekt va subyektiv omillar ta‘minlanadi, ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Modallikni xuddi shunga doir masalalar bilan bog‘liq ekanligi pragmatik kategoriya sifatida shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili

Pragmatika va matn tilshunosligiga oid adabiyotlarda, jumladan Y.D.Apresya hamda Y.D.Apresyanning fikricha, modallik pragmatik kategoriya sifatida tan olinishida uni nutqqa xos kategoriya va shu sababli u kommunikativ jarayonning asosidir; matn mazmuniy tuzilishida propozitsiya, referentsiya hodisalari informativ qismni, presuppozitsiya, tagma‘no, allyuziya, modallik kabilar pragmatik qismni tashkil etishi ko‘rsatib o‘tiladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida umumilmiy tavsifiy metod elementlaridan (tanlash, tasnif, leksik materiallarni izohlash); qiyosiy-tarixiy metod

(etimologik tahlil o‘tkazish va tilning diaxron holatiga ko‘ra qiyoslab o‘rganish); leksikografik tahlil; konseptual tahlil metodi; leksik-semantik maydonni aniqlash metodidan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tilida modal tuzilish uzvlarini lisoniy-kognitiv yo‘nalishda tadqiq etish tildagi mavjud modal birliklarni tarixiy-etimologik, semantik-stilistik va lingvopragmatik, lingvomadaniy xususiyatlarni aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to‘plangan materiallardan kelgusida tilimizdagi modal birliklarni lingvomadaniy, lisoniy-kognitiv jihatdan o‘rganishning tadqiq usullarini belgilashda, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, lingvomadaniyat bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratishda ko‘rinadi, to‘plangan materiallar va tadqiqot natijalari mazkur fanlarni o‘qitish va bu sohalarga oid nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishda manba sifatida xizmat qiladi.

Keying yillarda “pragmatika” va “modallik” tushunchalari ko‘plab tadqiqotlarda bir nuqtada kesishmoqda. Ikkala tushuncha ham o‘z doirasida keng miqyosga ega, biroq pragmatika modallikka qaraganda kengroq soha hisoblanadi. Pragmatikani lingvistikaning har bir bo‘limida uchratish mumkin bo‘ladi. Modallik esa barcha bo‘limlarda namoyon bo‘la olmaydi. Ayrim olimlar modallikni faqat sintaktik hodisa deb hisoblaydilar. Xuddi shu fikrni ilgari surgan Van Deyk tilning har jabhasida pragmatika mavjud ekanligi, modallik bo‘lsa, sintaktik kategoriya ekanligini alohida ta’kidlaydi. O‘zbek tilshunosligi materiallarida ham modallik sintaktik hodisa sifatida baholanadi. Lekin so‘nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda bu qarash yoqlanmaydi, ya’ni modallik ko‘p sathli hodisa bo‘lib, uni faqat sintaktik doiraga xos deyish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bugungi kunda modallik tilshunoslikning ko‘plab sohalariga doir kategoriya sifatida talqin qilinmoqda. Shunday bo‘lsa– da, uning asosi sintaksis bilan bevosita bog‘lanadi.

So‘zlovchi hamda tinglovchi orasidagi munosabat doimiy tarzda ko‘ngildagidek kechvermaydi, sababi ular yoki kommunikativ maqsadni to‘g‘ri belgilay olishmaydi, yoki nutqiy vaziyatni to‘g‘ri baholay olishmaydi. Bularning barchasidanda muhimroq jihat borki, bu kommunikativ munosabat ishtirokchilarining bir– birini his etishi. Ushbu holatda ma’ruzachidan ko‘proq talab qilinadigan narsa so‘zlovchining pragmatik holatini o‘rganish hamda shunga mos bo‘lgan nutqni ta’minlashdir. Y.D.Apresyaning fikricha, so‘zlovchi nutq

jarayonida uch holatni to‘g‘ri baholay olishi lozim, bular: aytilayotgan xabarning nutq predmeti bilan bog‘liqligi, realligi, xabar mazmuni hamda xabar qabul qiluvchisi. Demak, so‘zlovchi faqatgina bu uchchala narsani nafaqat his qilishi, balki unga baho bera olishi ham kerak bo‘ladi. Inson miyasi shu qadar cheksiz imkoniyatlarga egaki, biror axborotni boshqa obyektga uzatishda xushyorlikni oshirish xech qanday natija bermaydigan nutqdan saqlaydi. Voqelikka mos kelmaydigan xabar ifodalanishi so‘zlovchiga nisbatan boshqalarning ishonchini susaytiradi, tinglovchilarining kamayishiga olib keladi. Agar so‘zlovchi real voqelikka tezkor baho bera olmasa, o‘z nutqidan ko‘zlangan maqsadga erisha olmaydi. Xabar mazmunining qay darajada nutqiy vaziyatga mos kelishi ham juda muhim holatdir. Xabarni yetkazishning o‘ziga xos usullari borki, ularni qo‘llamaslik, yoki notog‘ri qo‘llash oqibatida ham natijasiz muloqot hosil bo‘ladi. So‘zlovchi qarshisida turgan, nimadandir hafsalasi pir bo‘lgan kishiga taskin berish, hol–ahvol so‘rash maqsadida unga murojaat qiladi. Shu vaziyatda tinglovchiga nisbatan “Nozik dilingizni nima xufton qildi?” deb savol bersa, bu murojaat tinglovchiga aks ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin bo‘ladi. Sababi nozik ko‘ngillilik, odatda, erkatoy, tantiq, hech narsadan ko‘ngli to‘lmaydigan kishilarga nisbatan aytiladi. Tinglovchining ongida mana shu jihatlar birdan gavdalanishi, so‘zlovchining maqsadi tamoman teskari qabul qilinishi, uning bu murojatidan tinglovchining jahli chiqishi holatlari kuzatilishi mumkin. Sababi xabarni ifodalashda, nutq egasi leksik birliklardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalana olishi zarur. Chunki, bir leksemaning noto‘g‘ri qo‘llanilishi xabar mazmunining o‘zgarib ketishiga yoki tinglovchining noo‘rin qabul qilishiga olib kelishi mumkin. Xabar qabul qiluvchisining yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, xarakter– xususiyati, mansabi, dunyoqarashiga qarab nutq so‘zlash so‘zlovchining mahoratli notiq ekanligidan dalolat beradi.

Matn borki, unda, albatta, so‘zlovchining shaxsiy munosabati mavjud bo‘ladi. Ifoda etilayotgan modallikni ifodalovchi birliklar matn tarkibida ko‘zga tashlansa, modallikning pragmatik kategoriya sifatidagi mohiyati matndan tashqari holatda seziladi. U istalgancha kengayishi, talqin qilinishi mumkin, pragmatik modallikda aniq chegara bo‘lmaydi, uni istalgancha kengaytirish, davom ettirish mumkin, bu adresat va adresantning kognitsiyasiga bog‘liq bo‘lgan va faqat ularning orasidagi jarayon.



I.Gorinaning ta'kidlashicha, har qanday matn pragmatikasida yashirin adresat va haqiqiy adresat mavjud bo'ladi. Ular orasidagi farq bir qarashda sezilmasada, ammo u mavjud. Ushbu farqni anglash muhim. Adresat hamisha ifodalayotgan fikrining to'liqligiga e'tiborli bo'lishi kerak.¹ U so'zlaganida o'z nutqiga munosabat, berayotgan savoliga javob sezilishi kerak, ana shunda tinglovchidan tushunishni kutish o'rinli bo'ladi. Bayon qilingan axborotning pragmatik mohiyati tinglovchining ushbu xabarni qabul qilishi va bildirgan munosabati orqali aniqlashadi. Chunki muallif bildirmoqchi bo'lgan fikrni idrok etish, undan xulosa chiqarish uning shaxsiy munosabati, bildirgan emotsiyasi orqali amalga oshadi. Ma'lum bo'ladiki pragmatik modallik ikki tomonlama jarayon. Uning mohiyatida muallif hamda o'quvchining munosabatlari yotadi.

Modallikning har qanday ko'rinishi matn tarkibida aks etadi. Matn esa maxsus ketma– ketlikda, uzviylikda, grammatik va leksik birliklar yordamida shakllanadi. Lekin matnni anglash, u orqali ta'sir etishda bu xususiyatlar yetarli bo'lmaydi. Matndan ko'zlanadigan bundanda muhimroq maqsad mavjud, bu maqsadli munosabat bo'lib, muallif har bir matnni tuzishdan, uni yetkazishdan ko'zlangan niyati asosida yuzaga chiqadi. Shuningdek, har bir matnda alohida aloqa shartlari bo'ladi va muallifning shaxsiy yo'nalishi sezilib turadi. shu sabadan ham matnni “Mazmuniy elementlar birligi” deyish ham mumkin bo'ladi.

Matn tarkibidagi modal element nafaqat tasvirlanayotgan voqelik, predmetga nisbatan munosabatni ifodalaydi, balki u bir gapni undan oldingi qismga ham bog'lashga xizmat qiladi. Bu xususiyati ko'zga ko'rinmasa– da, muhimdir. Chunki matnda ifodalangan modallikning pragmatikasini anglashda kontekst butunligicha anglab olingani ma'qul. Matndagi jumjalarning sodda bog'lanishining ham mantiqiy – pragmatik tomoni mavjud. Bu so'zlovchi va tinglovchi bir – biriga ishonch, ishonchsizlik, shubha, haqiqat mazmunida ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. Ushbu munosabat ma'nolari diskursiv vazifa bajaruvchi so'zlar sanaladi. Ularni birlashtirib, modal so'z va birliklar deb atash mumkin. [2; 3-b]. Ushbu so'zlar boshqa so'zlar bilan ittifoqlashib yoki to'g'ridan – to'g'ri bog'lana olmaydi, ular bunday ko'rsatgichga ega emas, sababi ular gap tarkibida avtonom xarakterda bo'lib, ko'chuvchanlik xususiyatiga ega, ya'ni ular gapning turli o'rinlarida kelishi mumkin. Modal so'zlar gapning grammatik tuzilishiga begona, ular tilning

¹ Валгина Н. С. Теория текста: Учеб. пособ. – М.: Логос, 2003. – С. 97.



metatekst elementlari sirasiga kiradi. Ular gapdagi soʻzlar bilan grammatik bogʻlanmasa ham semantik– pragmatik jihatdan chambarchas bogʻliq, yaʼni soʻzlovchi hamda tinglovchi ushbu jumлага doir munosabatlarning jamlanmasi modallikning pragmatik tabiatiga xos boʻladi.

Soʻzlovchi ifodalagan munosabat modallik boʻlar ekan, u bevosita berilayotgan axborotning tarkibiga kirib boruvchi subyektiv–reflektiv jarayon sifatida namoyon boʻladi.

Maʼruza qilayotgan subyekt tinglovchi eʼtiborini oʻz nutqining eng kerakli nuqtasiga qaratadi. Har qanday matnda mantiqiy va semantik munosabatlar mavjud boʻladi. Ulardan tashqari mohiyat, ikkilamchi mazmun esa pragmatik maʼnoni tashkil etadi.

Gapda modal birliklarning joylashishi haqida soʻz borganda, ularni tilning bogʻlovchi vositasi sifatidagi xususiyatini ham aytish joiz[3;318-b]. Uning bogʻlovchilik vazifasi shundan iboratki, ushbu pozitsiya ixtiyoriy boʻlsa – da, barcha diskursiv soʻzlar uchun mos kelib, qoʻshma gapning ikkinchi qismi bilan birinchi qismining oʻrtasida qoʻllanishi mumkin.

Muallif tasvirlanayotgan voqelikka munosabat bildirishda ifoda elementlaridan, usullaridan foydalanadi. Bu usullar matnning nima uchun tanlanganligi, motivatsion xarakter kasb etishi hamda maqsadga muvofiq kelishidir. Shunday qilib, modal soʻzlarning metatext xususiyatlari ularning qabul qiluvchisi tomonidan matn toʻgʻrisida xabardorlikni toʻgʻri yoʻlga yoʻnaltirish, uning qismlarining nisbiy axborot ahamiyatini (qiymatini) aniqlash qobiliyatida namoyon boʻladi. va shu bilan birga, ushbu elementlar bayonotni tashkil qilish vositalarining ajralmas funksiyalarini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Апресян Ю.Д. Коннотации как часть прагматики слова (лексикографический аспект) // Русский язык: Проблемы грамматической семантики и оценочные факторы в языке: Виногр. чтения XIX– XX. – М.: Наука, 1992. – 45-b.
2. Валгина Н. С. Теория текста: Учеб. пособ. – М.: Логос, 2003. – 3-b.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya.– Toshkent, 2008. – 318-b.

4. Nurmatovna, K. S. (2019). Formation of communicative competence of technical higher educational institutions students. *Проблемы современной науки и образования*, (11-2 (144)), 82-84.

5. Nurmatovna, X. S., & Umidjon o‘g‘li, A. Z. (2023). MODALLIK VA UNING GAP MAZMUNIDAGI O‘RNI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(8), 160-163.

6. Sayyora, X. (2023). THE IMPACT OF LANGUAGE GAMES ON CLASSROOM. *Involta Scientific Journal*, 2(4), 149-153.

7. Хамидова, С. Н. (2018). Интерактивные методы и их применение на занятиях английского языка. *Достижения науки и образования*, (18 (40)), 50-51.

8. Khamidova, S. N. (2021). MODALITY AND ITS ELEMENTS IN SENTENCE. *Theoretical & Applied Science*, (1), 88-91.

9. Abdukadirov U. N. BEST PRACTICE OF MOTIVATING SPEAKING ACTIVITIES FOR LOWER LEVELS //Экономика и социум. – 2022. – №. 12-1 (103). – С. 24-27.

10. Nazirovich A. U. et al. MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH IN HIGHER EDUCATION //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 20. – №. 2. – С. 45-47.

11. Nazirovich A. U. FEATURES OF THE TRANSLATION OF TECHNICAL TEXTS //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 05. – С. 58-63.

12. Nazirovich A. U. TURIZMGA OID ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI //Conferencea. – 2022. – С. 256-258.

Research Science and
Innovation House